



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA NUTQIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

So'g'diyona Muxamedova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistr

Zulfiya Mamarajabova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Eshitishida nuqson mavjud bo'lgan bolalarda nutqiy muloqot, so'zlashuv nutqi, dialogik va monologik nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi pedagogik shart-sharoitlar ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pedagogik, didaktik hamda psixologik-pedagogik sharoitlarning mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirishdagi o'rni asoslangan. Shuningdek, predmetli-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, eshitish-nutqiy muhit yaratish, qoldiq eshitish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, motivatsiyalangan nutqiy muloqotni yo'lga qo'yish, didaktik o'yinlar, suhbatlar, mashqlar hamda innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan korreksion-pedagogik faoliyatning samaradorligi yoritilgan. Maqolada milliy surdopedagogika sohasida faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni, kitobxonlik va labdan o'qish malakalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan qulay ta'limiy muhit, oilaviy hamkorlik, korreksion mashg'ulotlar hamda faol muloqotga asoslangan pedagogik yondashuvlarning maktabga tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik shart-sharoitlar, eshitishda nuqsoni mavjud bolalar, so'zlashuv nutqi, mashqlar, dialogik nutq, suhbatlar, didaktik o'yinlar, jonli muloqot, innovatsion texnologiyalar, og'zaki muloqot, surdopedagogika.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕЧЕВОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Суғдиёна Мухамедова

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрантка

Зульфия Мамараджабова

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы подготовки речи детей с нарушениями слуха к школьному обучению. Научно-методологически анализируются педагогические условия, имеющие большое значение в развитии речевой коммуникации, разговорной речи, диалогической и монологической речи у детей с нарушениями слуха. В ходе исследования раскрываются содержание и сущность педагогических, дидактических и психолого-педагогических условий, обосновывается их роль в формировании речи у детей с нарушениями слуха. Также подчеркивается эффективность коррекционно-педагогических мероприятий, основанных на организации субъектно-развивающей среды, создании слухоречевой среды, эффективном использовании остаточных слуховых способностей, формировании мотивированной речевой коммуникации, дидактических играх, беседах, упражнениях и инновационных технологиях. В статье анализируются научные взгляды ученых, работающих в области национальной сурдopedagogики, и показаны педагогические возможности развития коммуникативных компетенций, навыков чтения и чтения по губам у детей с нарушениями слуха. Раскрывается важность благоприятной образовательной среды, сотрудничества семьи, коррективных упражнений и педагогических подходов, основанных на активной коммуникации, организованных с учетом возраста и индивидуальных особенностей детей, в процессе подготовки к школе.

Ключевые слова: педагогические условия, дети с нарушениями слуха, разговорная речь, упражнения, диалогическая речь, беседы, дидактические игры, живая коммуникация, инновационные технологии, устная коммуникация, сурдopedagogика

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR SPEECH PREPARATION OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS FOR SCHOOL EDUCATION

So'g'diyona Muxamedova

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's Student

Zulfiya Mamarajabova

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Abstract

This article covers the theoretical and practical foundations of speech preparation of children with hearing impairments for school education. The pedagogical conditions that are of great importance in the development of speech communication, colloquial speech, dialogic and monologic speech in children with hearing impairments are scientifically and methodologically analyzed. During the study, the content and essence of pedagogical, didactic and psychological-pedagogical conditions are revealed, and their role in the formation of speech in children with hearing impairments is substantiated. Also, the effectiveness of correctional and pedagogical activities based on organizing a subject-developing environment, creating an auditory-speech environment, effectively using residual hearing capabilities, establishing motivated speech communication, didactic games, conversations, exercises and innovative technologies is highlighted. The article analyzes the scientific views of scientists working in the field of national surdopedagogy, and shows pedagogical opportunities for developing communicative competencies, reading and lip reading skills in children with hearing impairments. The importance of a favorable educational environment, family cooperation, corrective exercises, and pedagogical approaches based on active communication, organized taking into account the age and individual characteristics of children, in the process of preparing for school is revealed.

Keywords: pedagogical conditions, children with hearing impairments, colloquial speech, exercises, dialogic speech, conversations, didactic games, live communication, innovative technologies, oral communication, surdopedagogy.

Ta'lim jarayonini optimallashtirish va pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri amalga oshirilayotgan faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, asoslash va tekshirishdan iborat. Keng ma'noda shart-sharoitlar biror narsa bog'liq bo'lgan holat, hayot yoki faoliyatning ayrim sohasida belgilangan qoidalar hamda biror narsa sodir bo'ladigan muhit mazmunini anglatadi. Psixologiya nuqtai nazaridan ushbu tushuncha odatda psixik rivojlanish kontekstida talqin qilinadi va shaxsning psixologik rivojlanishini belgilovchi, uni tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi, rivojlanish jarayoniga, uning dinamikasi va yakuniy natijalariga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar majmui orqali izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda pedagogik shart-sharoitlar mazmunini aniqlash muammosiga oid bir necha qarashlar mavjud. Xususan, birinchi nuqtai nazar vakillari V.I. Andreyev, N.V. Ippolitova va N.M. Yakovlevaning fikricha, pedagogik shart-sharoitlar qo'yilgan vazifalarni hal etishga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatishning barcha chora-tadbirlari (ta'lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari, usullari va tashkiliy shakllari) hamda moddiy-makoniylar muhit imkoniyatlari majmui hisoblanadi.

Ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari M.V. Zvereva va N.V. Ippolitova pedagogik shart-sharoitlarni pedagogik tizimning tarkibiy komponentlaridan biri sifatida talqin qiladilar [3]. Ularning fikricha, bu shart-sharoitlar tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi va keyingi rivojlanishini ta'minlaydigan ichki (ta'lim jarayoni subyektlarining shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi) hamda tashqi (tizimning protsessual jihatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi) elementlar majmuini aks ettiradi.

Uchinchi nuqtai nazarga ko'ra, B.V. Kupriyanov va S.A. Dinina pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy bilimlarning o'zi bilan bog'laydilar hamda ularni o'quv jarayonidagi barqaror aloqalar va qonuniyatlarni aniqlashtirish bo'yicha olib borilgan tizimli, izchil ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalarini tekshirish imkonini beruvchi omil sifatida baholaydilar [4].

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar pedagogik faoliyat maqsadlariga erishish va ta'lim vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlashga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari va metodlari imkoniyatlari yig'indisidir. Didaktik shart-sharoitlar esa, bir tomondan, o'qitish va tarbiyalashning ob'ektiv imkoniyatlari, tashkiliy shakllari hamda moddiy resurslari majmui bo'lsa, ikkinchi tomondan, boshqaruv nuqtai nazaridan pedagogik jarayonning protsessual jihatini rivojlantirish va uning

samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan subyektlararo hamkorlik sharoitlarini ifodalaydi.

Psixologik-pedagogik sharoitlar, N.V. Juravskaya, A.V. Krugliy va A.V. Lisenkolarning e'tirof etishicha, pedagogik jarayon subyektlari yoki ob'ektlari (pedagoglari va ta'lim oluvchilar) shaxsining rivojlanishiga ma'lum pedagogik ta'sir choralari ko'rsatishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [5].

Metodologiya

Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishda nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va surdopedagogik adabiyotlar tahlili, ilmiy manbalarni qiyosiy o'rganish, kuzatish, suhbat, pedagogik monitoring hamda umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar, nutqiy mashqlar va kommunikativ faoliyat turlari tahlil qilinib, ularning nutqiy rivojlanishga ta'siri baholandi. Tadqiqotda bolalarning yosh, individual hamda psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Didaktik sharoitlar, qoida tariqasida, o'quv maqsadlariga erishish uchun mavjud o'quv sharoitlari hisobga olinadigan va ushbu sharoitlarni o'zgartirish usullari ko'zda tutilgan holatlar bilan bog'liqdir. O'qitishning mazmuni, metodlari (usullari) va tashkiliy shakllari optimallashtirish tamoyillarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va qo'llaniladi. Shunday qilib, adabiyotlarni o'rganish natijalari pedagogik sharoitlarni shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ta'limiga ta'sir qiluvchi hamda bu jarayonlarni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, ularning dinamikasi va yakuniy natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar, holatlar va ob'ektlar majmui sifatida tavsiflash imkonini beradi. Shart-sharoitlar ta'lim oluvchi rivojlanadigan ta'lim muhitining tarkibiy qismlari yoki xususiyatlari hisoblanadi. Barcha hayotiy faoliyat sharoitlari tizimi insonning yashash muhitini tashkil etadi. Atrof-muhit keng ma'noda bola o'sadigan iqlim va tabiiy sharoitlarni anglatadi. Shuningdek, bu davlatning ijtimoiy tuzilishi, madaniyati va turmush tarzi, xalqning an'analari hamda urf-odatlarini ham qamrab oladi. Mazkur omillar tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyati va yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zarur shart-sharoitlarning mavjud emasligi yoki yetishmasligi tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi, jumladan, ta'lim olishi, tarbiyalanishi va ijtimoiylashuvining to'xtashi yoki sekinlashishiga olib keladi.

Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari bolalarning muloqot, kommunikativ fazilatlar, aloqa vositalari va shaxsning kommunikativ sifatleri haqidagi tasavvurlaridan iborat ekanligidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim muassasasida uning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratilishi lozim. Masalan, umumiy maktabgacha ta'lim tizimida bunday sharoitlarga predmetli-ta'lim muhitini yaratish, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, rejimli holatlar, guruhiy faoliyat, kattalar va bola, shuningdek, bola va tengdoshlari o'rtasidagi hamkorlik faoliyati kiradi. Mazkur sharoitlar eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ham birdek dolzarbdur. Biroq ushbu toifadagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsus ta'lim tizimida ularning tasavvurlari, malakalari va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi alohida sharoitlar yaratilishi zarur.

Maxsus maktabgacha ta'lim sharoitida atrof-muhit bolaning bevosita predmetli qurshovini tashkil etadi. Predmetli-rivojlantiruvchi muhit bolalar faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishga, oliy psixik funksiyalardagi og'ishlarni korreksiyalashga hamda bolaning shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi makondir. U bolalarning to'laqonli jismoniy, ijtimoiy, bilish va estetik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qator asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Bularga tabiiy muhit va ob'ektlar, madaniy landshaftlar, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish vositalari, predmetli-o'yin muhiti, musiqiy-teatr muhiti, mashg'ulotlarning predmetli-rivojlantiruvchi muhiti va boshqalar kiradi. Predmetli-rivojlantiruvchi muhit komponentlarining mazmuni bolaning yosh xususiyatlari hamda uning yetakchi faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuni bolaning nafaqat dolzarb va yaqin, balki uzoq muddatli rivojlanish ehtiyojlarini ham qondirishi hamda uning individual imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Atrof-muhitning mazmuni imkoniyatlari cheklangan bolalar toifasiga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Maxsus sharoitlarga eshitish-nutqiy muhitni yaratish, qoldiq eshitish qobiliyatidan foydalanish va uni rivojlantirish, amaliy faoliyat jarayonida bolalar bilan motivatsiyalangan nutqiy muloqotni tashkil etish, bolalarda nutqiy muloqotga ehtiyojni shakllantirish, ularning nutqining barcha ko'rinishlarini darajasidan qat'i nazar qo'llab-quvvatlash, bolalarni nutqdan faol foydalanishga undash, kattalar tomonidan bolalar

nutqini nazorat qilish, kattalar nutqiga qo'yiladigan yagona talablarga rioya etish hamda korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri predmetli-rivojlantiruvchi muhit bilan bir qatorda ularning faoliyatini va faoliyatning turli shakllarini (muloqot, o'yin, harakat, konstruktorlik faoliyati, tasviriy faoliyat va boshqalar) to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. Korreksion-pedagogik ishlar mazmuni mashg'ulotlarda, rejimli jarayonlarda hamda bolalarning erkin faoliyati davomida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviy ravishda kompleks mashg'ulotlar alohida o'rin tutadi. Bunday mashg'ulotlarda bir vaqtning o'zida bir nechta didaktik vazifalar — bilimlarni tizimlashtirish, malakalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boshqa vazifalar hal etiladi. Milliy surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi, so'zlashuv nutqi, kommunikativ, kitobxonlik va labdan o'qish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari qator olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

F.U. Qodirova kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun ularning emotsional-hissiy sohasiga ta'sir etish, faoliyatning turli yo'nalishlarini (o'yin, o'qish, dam olish, ijodkorlik va boshqalar) rivojlantiruvchi maqsadli yondashuvlarni tashkil etish, bolalarni rag'batlantirish va jazolash vositalarini to'g'ri tanlash hamda joriy etish, bolalarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik psixik o'zgarishlarni hisobga olish va kutiladigan muammolarning oldini olish kabi zarur pedagogik shart-sharoitlarni ta'kidlaydi [2]. Olimaning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlari oilada yo'lga qo'yilib, maktabgacha ta'lim muassasasida izchil davom ettirilsa, kar bola maktab ta'limiga puxta tayyor bo'ladi va yangi muhitga qiyinchiliksiz moslashadi. Kar va zaif eshituvchi bola maktab ta'limi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollangan taqdiridagina ta'lim mazmuniga qo'yilgan davlat talablarini to'liq amalga oshirish imkoniyati yaratiladi [5].

D.U. Muxitdinovanning e'tirof etishicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik sharoitlari o'qish darslarida o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, so'z ma'nolarini aniqlashtirish, nutqiy muloqot uchun qulay sharoit yaratish va ularning nutqiy amaliyotini kengaytirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, o'rganilayotgan badiiy asardagi so'z, fraza va matnni anglash hamda farqlash orqali eshitish-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullarini amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish zarur deb hisoblaydi. Muallif eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda badiiy asar o'qishga qiziqish uyg'otish, kitobning tarkibiy qismlarini bilish, asar mazmunini idrok etish va uni bayon qilish faoliyatining o'zaro bog'liqligi hamda izchilligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning maqsadli, mazmuniy, tarkibiy-kompozitsion va kommunikativ komponentlarini shakllantirishda sinf va sinfdan tashqari o'qish darslarini nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, texnologiya, eshitish idrokini rivojlantirish hamda talaffuz malakalarini shakllantirish mashg'ulotlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni tavsiya etadi [4].

D. Azimova eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini mutolaaga motivatsiya, bibliografik, kognitiv va kommunikativ komponentlarning o'zaro uzviy bog'liqligi hamda ularning identiv-madaniy va transformatsion xususiyatlarini mantiqiy asoslash orqali belgilaydi [7].

I. Xaydarov "Tabiiy fanlar"ni o'qitish jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning so'zlashuv nutqini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik sharoitlarni muhim deb hisoblaydi: bolalarda og'zaki nutq vositalaridan foydalanish ehtiyoji va ixtiyorini tarbiyalash; nutqiy muhit yaratish va uning rivojlantiruvchi salohiyatini oshirish; bolalarning jamoaviy amaliy faoliyati jarayonida og'zaki nutqiy muloqotni egallashini ta'minlash; o'qituvchi va tengdoshlar bilan muloqotda nutqning turli shakllaridan foydalanishga o'rgatish; dastlabki bosqichlarda daktil nutqdan foydalanish va talaffuz hamda yozuv malakalari rivojlangani sari undan yordamchi vosita sifatida foydalanish; nutqiy materialni dastur talablari va bolalarning imkoniyatlariga mos ravishda tanlash; muloqotda qo'llaniladigan nutqiy materialni og'zaki nutq leksikasi va sintaksisiga yaqinlashtirish; avvalo sodda yig'iq gaplarni, keyinchalik so'roq, undov va darak gaplarni o'rgatish; beriladigan nutqiy materialni bolalarning talaffuz imkoniyatlari yoki so'zlarning tovush-harf tuzilishiga bog'lab qo'yimaslik; nutqiy materialni pedagog bilan birgalikda, pedagog ketidan yoki mustaqil ravishda (namuna asosida) qo'llashga o'rgatish; so'z ma'nolarini aniqlashtirish maqsadida bir xil so'zlarni turli gaplarda qo'llash [2].

Har bir aniq holatda labdan o'qish sifati yoritilganlik darajasi, suhbatdoshgacha bo'lgan masofa, uning bosh holati, ko'rinadigan nutq organlarining tuzilishi, talaffuz xususiyatlari, yuz mimikasi, imo-ishoralarning ma'nodorligi kabi tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, nutqiy materialning

mazmuni, lugʻat boyligi, grammatik shakllanganligi va muloqot kechayotgan vaziyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar muloqot bevosita kar bolaga qaratilgan boʻlsa, labdan samarali oʻqishning asosiy sharti uning nutqiy rivojlanish darajasi, xususan, lugʻat boyligi, tilning grammatik qurilishini egallashi va talaffuz koʻnikmalarining shakllanganligi hisoblanadi.

M.M. Qodirov ham eshitishida nuqsoni boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarda labdan oʻqish sifati yoritilganlik, suhbatdoshgacha boʻlgan masofa, bosh holati, nutq organlari tuzilishi, talaffuz xususiyatlari, yuz mimikasi va imo-ishoralarning maʼnodorligi kabi tashqi omillar bilan bir qatorda nutqiy materialning mazmuni, lugʻati, grammatik shakllanganligi hamda muloqot vaziyatiga bogʻliq ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, labdan yaxshi oʻqishning eng muhim sharti bolaning yetarli darajadagi nutqiy rivojlanganligi, yaʼni lugʻat boyligi, grammatik bilimlari va talaffuz malakalariga ega boʻlishidir [1]. Shunday qilib, pedagogik shart-sharoitlar deganda taʼlim muassasasida korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun yaratiladigan tashqi omillar majmui tushuniladi. Psixologik-pedagogik sharoitlar esa nutqiy muloqot, uning vositalari va shakllarini rivojlantirish, kommunikativ malakalarni shakllantirish, bolalarning muloqot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda kommunikativ shaxs sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taʼlim-tarbiya jarayonida yaratiladigan shart-sharoitlar bolalar uchun qiziqarli va qulay boʻlishi, ularning faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Bunday muhit barcha bolalarning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Aynan faol muloqot muhitiga asoslangan pedagogik jarayon tarbiyalanuvchilarning soʻzlashuv nutqini takomillashtirishga, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini kompleks rivojlantirishga va taʼlim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Xulosa

Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash jarayoni maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar asosida samarali amalga oshiriladi. Nutqiy muloqotni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, bolalarda ogʻzaki nutqqa ehtiyoj va qiziqishni kuchaytirish korreksion-pedagogik faoliyatning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda eshitish-nutqiy muhitni yaratish, predmetli-rivojlantiruvchi muhitdan foydalanish, didaktik oʻyinlar, suhbatlar, mashqlar hamda innovatsion texnologiyalarni qoʻllash bolalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning yosh, individual va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan taʼlimiy muhit ularning soʻz boyligini kengaytirish, dialogik va monologik nutqini rivojlantirish, labdan oʻqish hamda muloqot koʻnikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Oilaning pedagogik jarayondagi faol ishtiroki, pedagog va bola oʻrtasidagi jonli muloqot, shuningdek, nutqiy faoliyatning kundalik hayot bilan integratsiyalashuvi bolalarning ijtimoiy moslashuvini taʼminlashda muhim omil sanaladi. Maktabgacha taʼlim bosqichida olib boriladigan tizimli va maqsadli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning maktab taʼlimiga tayyorgarligini kuchaytiradi, ularning nutqiy hamda kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois taʼlim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, individual va differensial taʼlim tamoyillariga asoslangan metodlarni keng qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Malikova X.I. Boʻlajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 24 b.
2. Матыня Э. Влияние организации учебного процесса на сознательное чтение глухих учащихся: дис. ... канд. пед. наук. – Л., 1987. – 170 с.
3. Малхасьян Е.А. Совершенствование самостоятельной письменной речи глухих учащихся вечерних школ: учеб.-метод. пособие. – Л.: ЛВТс VOG, 1989. – 48 с.
4. Qodirova F.U. Boshlangʻich sinf kar va zaif eshituvchi oʻquvchilar nutqini shakllantirish: ped. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2006.
5. Qodirov M.M. Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarda labdan oʻqish kompetensiyalarini rivojlantirish: ped. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 22 b.
6. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari: ped. fan. doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2020. – 32 b.
7. Yakubjanova D.B. Boʻlajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi: ped. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 22 b.
8. Yakubjanova D.B. Ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari boshlangʻich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 22 b.